



XOMASHYO ARALASHMASI TARKIBINI MODELLASHTIRISH ASOSIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARI ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI OSHIRISH

Jo'raqulov Javoxir

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0009-0000-3132-7899

javokhir.jurakulov011@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'qimachilik korxonalarida tikuvchilik iplarini ishlab chiqarishda muqobil xomashyo tarkibini tanlashni modellashtirish asosida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini izlab topish masalasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, samaradorlik, muqobillashtirish, modellashtirish.

УВЕЛИЧЕНИЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ МОЩНОСТЕЙ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ СОСТАВА СЫРЬЕВОЙ СМЕСИ

Джоракулов Джавахир

Ташкентский институт текстильной

и легкой промышленности

Аннотация. В данной статье исследуется вопрос поиска возможностей использования производственного потенциала на основе моделирования выбора альтернативного сырья при производстве швейных ниток на текстильных предприятиях.

Ключевые слова: потенциал, производственный потенциал, эффективность, альтернативизация, моделирование.

INCREASING THE PRODUCTION CAPACITY OF TEXTILE ENTERPRISES BASED ON MODELING THE COMPOSITION OF THE RAW MATERIAL MIXTURE

Jorakulov Javakhir

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Abstract. In this article, the issue of finding opportunities to use the production potential based on the modeling of the selection of alternative raw materials in the production of sewing threads in textile enterprises is studied.

Keywords: potential, production potential, efficiency, alternativeization, modeling.

Kirish.

Aholining talab va ehtiyojlarining keskin o'sib borishi, shuningdek, jahon bozorida global raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish orqali ularning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlash va bu boradagi belgilangan ustuvor vazifalarni hal etishda mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan tejamkor foydalanish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishda to'qimachilik sanoatining o'rni beqiyos bo'lib, ushbu tarmoqni rivojlantirish bo'yicha respublikamizda tarixiy boy tajriba to'plangan va yetarlicha sharoit hamda xomashyo bazasi va mehnat resurslari mavjud. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko'paytirish» vazifasi belgilangan (Farmon, 2022). Shu bilan birgalikda mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash uchun barqaror rivojlanish jarayonida to'qimachilik sanoati korxonalarida mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanishda mahsulot ishlab chiqarishda xom ashyo sarfini kamaytirish maqsadida zamonaviy ekonometrik modellashtirish imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasining pasayishi holati ishlab chiqarish salohiyatining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammolar va omillar mahalliy xususiyatga ega emas, balki bir-biriga bog'langan va bir-biriga bog'liq bo'lgan ko'plab elementlardan tashkil topgan tizimni ifodalaydi. Shu boisdan, bu kabi masalalar yechimini topishda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish masalasi mualliflar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib, global muammolardan biri sanalgan – kishilik jamiyati a'zolarining u yoki bu turdagi mahsulot (xizmat)ga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslar zahiralarining chegaralanganligi muammosidir. Aynan resurslar chegaralanganligi muammosini hal etish orqali mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanish imkoniyatlarini izlab topishda tejamkor texnologiyalarni joriy etish asosida mavjud barcha resurslardan samarali foydalanish zarur bo'ladi.

Odatda, iqtisodiyotga oid ko'plab manbalarda bu kabi masala yechimini izlab topishda mualliflar tomonidan ishlab chiqarish salohiyatining mohiyatini ochib berish borasida bir qancha yondashuvlar amalga oshirilgan. Ishlab chiqarish salohiyati mohiyatini ochib berishdagi *resurs yondashuvining* tarafdorlari I.V.Lukinov, L.I.Abalkin, V.A.Zolotarev, G.V.Savitskaya, L.D.Revutskiy, M.U.Slijislar «ishlab chiqarish salohiyatini barcha resurslarning ishlab chiqarish jarayonida ularning o'zaro ta'siri va o'zaro bog'liqligini hisobga olmagan holda yig'indisi», - sifatida tushunadi (Исаев, 2021).

Resurs yondashuvi doirasida Y.Y.Donets, L.D.Revutskiy, V.K.Faltsman, L.M.Smishlyayevlar ishlab chiqarish salohiyati va ishlab chiqarish quvvatini ikkita bir xil tushuncha sifatida ko'rib chiqadilar. Shuni ta'kidlash kerakki, bu nuqtai nazar biroz cheklangan, chunki u faoliyat natijasiga turli xil ta'sirlar darajasini baholashga ta'sir qilmaydi (Исаев, 2021).

Ishlab chiqarish salohiyati mohiyatini ochib berishdagi *natijaga asoslangan yondashuv* tarafdori sanalgan Shexovsova (2014) ishlab chiqarish salohiyati «mahsulotni chiqarish va sotish uchun ko'plab ishlab chiqarish imkoniyatlarini birlashtiradigan toifa» ekanligini aniqladi.

Alekseychevaning (2016) ta'kidlashicha, ishlab chiqarish salohiyati ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan va korxona tomonidan tashqi va ichki bozorlarda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun foydalaniladigan o'zaro bog'liq resurslar majmuasi sifatida tavsiflanadi.

Dianovanning (2013) ta'kidlashicha, ishlab chiqarish salohiyati «mehnat, moddiy, moliyaviy va axborot resurslari oqimlarini birlashtirish orqali jamiyatning mahsulotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iqtisodiy tizimning ijodiy faoliyatni amalga oshirishning maksimal qobiliyati» deb ta'riflanadi.

Respublikamiz olimlaridan Isayev (2021) tomonidan O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoatining «yashil» iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan.

Shunday qilib, innovatsion iqtisodiyotning zamonaviy sharoitida ilmiy, texnologik, axborot va tashkiliy komponentlarning mustaqil elementlar sifatida ajratilishi hisobiga «ishlab chiqarish salohiyati» tushunchasi sezilarli darajada kengayib bormoqda. Binobarin, bizning fikrimizcha, to'qimachilik korxonasi ishlab chiqarish salohiyatining resurs komponenti ma'lum bir tarzda, ya'ni moddiy-texnikaviy, kadrlar, ilmiy-texnikaviy, axborot va tashkiliy jihatdan o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir qiluvchi lokal salohiyatlarning uyushgan majmui sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi sharoitda har bir ishlab chiqarish korxonasining raqobatda ustunligini ta'minlashning eng muhim omillaridan biri – bu mavjud barcha resurslardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarish salohiyatidan mutanosib tarzda foydalanishni yo'lga qo'yish orqali raqobatbardosh mahsulot turlarini ishlab chiqarish sanaladi. Bu kabi vazifalarni hal etishda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoat korxonalari ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini baholash usullari bir qancha mualliflar tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, Merzlikina (2018) va Shaxovskayaning (2014) uslubiyaatida amalga oshirilgan yondashuvga ko'ra korxonaning ishlab chiqarish salohiyati mualliflar o'z ichiga olgan predmet tarkibiy qismlari bo'yicha ko'rsatkichlarni umumlashtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Hozirgi vaqtda korxonaning ishlab chiqarish salohiyati darajasini baholash muammosiga eng muvaffaqiyatli yondashuv Fomin (2019) va Starovoytovlar (2016) tomonidan taklif qilingan baholash usuli hisoblanadi, unga ko'ra korxonaning ishlab chiqarish salohiyati darajasini baholash uch bosqichda amalga oshiriladi:

1) tarkibiy qismlari ishlab chiqarish, kadrlar va moddiy, axborot, tashkiliy-iqtisodiy tarkibiy qismlar bo'lgan korxonalarning ishlab chiqarish salohiyati elementlarini, shuningdek ularning xususiyatlarini aniqlash;

2) korxonaning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini turlari bo'yicha baholashning umumiy va maxsus ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, xususan, mualliflar ishlab chiqarish, moddiy va kadrlar tarkibiy qismlarining holatini baholashni taklif qiladilar;

3) ko'rsatkichlarning chegaraviy qiymatlarini aniqlash va tahlil qilinayotgan korxonani u yoki bu toifaga (ishlab chiqarish salohiyatining yuqori, o'rta, past darajasi) belgilash (Старовойтов, Фомин, 2016).

Rossiialik tadqiqotchi Karsunseva (2014) tomonidan taklif qilingan uslubning afzallik jihatlari quyidagilar sanaladi:

1) Ishlab chiqarish salohiyati uni tashkil etuvchilari holati, ulardan foydalanish holati nuqtai nazaridan har bir tarkibiy qism muhimlik darajasini inobatga olgan holda pirovardida integral ko'rsatkich qiymatiga binoan baholanadi;

2) uslubiyaatning universalligi (nafaqat korxonani, balki tarmoqni ham baholash uchun ishlatilishi mumkin va hokazo).

Tadqiqot ishida «BETLIS TEKSTIL» mas'uliyati cheklangan jamiyatda 2025 yilda tikuvchilik iplarini ishlab chiqarishda yuqorida keltirilgan ip sifati ko'rsatkichi bo'yicha xom ashyo tarkibining muqobil variantini tanlashda ekonometrik modellashtirishning muqobillashtirish usulidan foydalandik.

«BETLIS TEKSTIL» mas'uliyati cheklangan jamiyat to'qimachilik korxonasida tikuvchilik iplarini ishlab chiqarishda xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan tadbirlarni amaliyotga joriy etish rejasining xom ashyo xarajatlarini kamaytirish mezonini bo'yicha maqsad funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$L(x) = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m P_i * X_{ij} \rightarrow \min \quad (1)$$

Ushbu maqsadni amalga oshirishda «BETLIS TEKSTIL» mas'uliyati cheklangan jamiyat to'qimachilik korxonasida xom ashyo turlari bo'yicha zahiralar miqdori chegaralanganligi bois, joriy etiladigan tadbirlarni amalga oshirishda foydalaniladigan xom ashyo uning zahiralar miqdoridan kichik yoki teng bo'lishi kerak:

$$\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m A_{ij} * X_{ij} \leq B_j \quad (2)$$

Joriy etiladigan tadbirlarni amalga oshirishda foydalaniladigan mehnat resurslari uning zahiralar miqdoridan kichik yoki teng bo'lishi kerak:

$$\sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m M_{ij} * X_{ij} \leq K_j \quad (3)$$

Ko'rsatib o'tilgan tadbirlar to'liq yoki qisman joriy etilishi mumkinligini hisobga olgan holda tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni joriy etilishi shartini quyidagi tenglama orqali ifodalandi:

$$\begin{aligned} 0 &\leq X_{ij} \leq 1 \\ X_{ij} &\geq 0 \end{aligned} \quad (4)$$

bu yerda, i - «BETLIS TEKSTIL» mas'uliyati cheklangan jamiyatda tashkiliy-texnikaviy tadbirlar rejasida amalga oshiriladigan tadbirlarning tartib soni ($i=1, n$);

j - tashkiliy-texnikaviy tadbirlar rejasi bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlarga sarflanadigan resurslar turlari ($j=1, m$);

P_i - tadbirni reja bo'yicha to'liq amalga oshirishda olinadigan foyda miqdori;

A_{ij} - joriy etiladigan i - turdagi tadbirni amalga oshirish uchun sarflanadigan j - turdagi xom ashyo sarfi miqdori;

B_j - j - turdagi xom ashyo zahira miqdori;

M_{ij} - joriy etiladigan i - turdagi tadbirni amalga oshirish uchun sarflanadigan j - turdagi mehnat sarfi miqdori;

K_j - j - turdagi mehnat resursi zahira miqdori;

X_{ij} - tashkiliy-texnikaviy reja bo'yicha i - turdagi tadbirni joriy etilish qismiga sarflanadigan j - turdagi resurslar miqdori.

Masala quyidagicha qo'yildi: «BETLIS TEKSTIL» mas'uliyati cheklangan jamiyat to'qimachilik korxonasida yuqorida keltirilgan 4 ta xom ashyo tarkibi bo'yicha tikuvchilik iplarini ishlab chiqarishda qaysi tarkib eng muqobil bo'ladi. «BETLIS TEKSTIL» mas'uliyati cheklangan jamiyat to'qimachilik korxonasining yillik ishlab chiqarish hajmi 1600 tonna. Bir kg tikuvchilik ipini ishlab chiqarishga oid ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

Olingan ma'lumotlar asosida «BETLIS TEKSTIL» mas'uliyati cheklangan jamiyat to'qimachilik korxonasida xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan tadbirlarni amaliyotga joriy etish rejasining xarajatlarni kamaytirish mezonini bo'yicha hisob-kitoblari EvIEWS 14 dasturi yordamida amalga oshirildi.

1-jadval

**Bir kilogramm tikuvchilik iplarini ishlab chiqarishda sarflanadigan resurslar
hamda xarajatlar miqdori**

Ko'rsatkichlar	Variantlar				Resurs zahira miqdori, ming so'm
	M ₁	M ₂	M ₃	M ₄	
Bir birlik mahsulotga sarflanadigan xom ashyo miqdori, ming so'm	13,338	12,611	11,876	11,412	213400000
Bir birlik mahsulotga sarflanadigan mehnat resursi miqdori, ming so'm	0,918	0,918	0,918	0,918	1468800
Bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish to'la xarajati miqdori, ming so'm	16,070	15,194	14,310	13,746	

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Shunday qilib, tikuv-trikotaj korxonasida tikuv-trikotaj korxonasida ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda xarajatlarni kamaytirish modelini ishlab chiqish uchun xom ashyo muqobil tarkibini tanlash masalasini yechishda foyda miqdorini oshirish bo'yicha hisob-kitoblari natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'ylakbop matolarning g'ijimlanmasligi, havo o'tkazuvchanligi, kirishishi, ishqalanishga chidamliligi ko'rsatkichlari bo'yicha iste'molchilar talabiga mos keluvchi bolalar kiyimini ishlab chiqarishda eng variantlar sifatida 1- va 4-variantlarni tavsiya etish mumkin.

Adabiyotlar / Literature / Reference:

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. // www.lex.uz.

Алексейчева Е.Ю. (2016) Экономика организации (предприятия): учебник для бакалавров / Е.Ю.Алексейчева, М.Д. Магомедов, И.Б. Костин. – М.: Дашков и К. – 291 с.

Дианова В.А. (2013) Структурно-пространственный механизм формирования ресурсного потенциала региона: монография / В.А. Дианова, Б.М. Жуков. – Краснодар: Южный институт менеджмента, – 178 с.

Исаев, Р. (2021). ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИ СТРАТЕГИЯСИНИ МУВАФФАҚИЯТЛИ АМАЛГА ОШИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАР ВА ТЎСИҚЛАР МУҲИМЛИГИНИ АНИҚЛАШ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (3), 159-162.

Карсунцева О.В. (2014) Формирование и реализация стратегии повышения уровня использования производственного потенциала предприятий машиностроения: автореф. дис. на соиск. уч. степ. док. экон. наук. - Самара, – 48 с.

Мерзликина Г.С. (2018) Оценка экономической состоятельности предприятия / Г.С.Мерзликина. - Волгоград: Изд-во ВолгГТУ.

Старовойтов М.К., Фомин П.А. (2016) Особенности оценки потенциала промышленных предприятий // Антикризисное и внешнее управление. – № 2. – С. 27–41.

Старовойтов М.К., Фомин П.А. (2019) Практический инструментарий организации управления промышленным предприятием. – М.: Высшая школа, – 266 с.

Шеховцова Л.В. (2014) Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности: учебное пособие / Л.В. Шеховцова, А.В. Ануфриева. – Новосибирск: Новосибирский государственный архитектурно-строительный университет (Сибстрин), ЭБС АСВ, – 61 с.